

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

Loyihaning turi: PUDRAT SHARTNOMASI

1. Loyihaning mazmuni: Yakkabog' tuman oodonlashtirish boshqarmasi va "YAKKABOG' FAYYOD" MCHJ o'rtasida, Yakkabog' tuman Paxtakor MFYda piyodalar yo'lagini qurilish ishlarini bajarish bo'yicha 235 947 230 (Ikki yuz o'ttiz besh million) so'mlik shartnoma loyihasi.

2. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Yakkabog' tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan markazga 25.08.2022 yilda kiritilgan.

3. Loyiha amaldagi qonu hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yakkabog' tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsul'ti**

26.08.2022 yil



F.Mo'minov.

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «26» 8 815-4-68-OB/2022-son _____ sh.

"YAKKABOG' FAYYOD" MCHJ nomidan Nizom asosida ish yurituvchi raxbar B.Abdimajidov bir tomondan (bundan buyon matnda "Bajaruvchi" deb yuritiladi) Yakkabog' tumani Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi raxbar S.Suyunov, ikkinchi tomondan (bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdik:

I. SHARTNOMA PREDMETI

"Bajaruvchi" ushbu Shartnoma sharlariga muvofiq Yakkabog' tuman Paxtakor MFYda piyodalar yo'lagini qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" ushbu joriy ta'mirlash ishlarini qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi. Ko'rsatiladigan joriy ta'mirlash ishlarining bahosi 235 947 230 (Ikki yuz o'ttiz besh million) so'mni tashkil etadi.

II. TOMONLARNING HUQUKLARI VA MAJBURIYATLARI

Buyurtmachining xuquqlari: bajaruvchidan texnik shartlarga lozim darajadagi joriy ta'mirlash ishlarini ko'rsatishni talab qilish;

lozim darajadagi sifatda xizmat ko'rsatilmagan taqdirda, o'z xohishiga ko'ra quyidagilarni talab qilish:

kamchiliklarni bepul bartaraf etish yoki Buyurtmachining yoki uchinchi shaxsning kamchiliklarni bartaraf etishga doir xarajatlarini qoplash;

bahosini mutanosib ravishda pasaytirish;

shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

Buyurtmachining majburiyatlari:

ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ko'rsatilgan joriy ta'mirlash ishlarini qabul qilish;

ushbu Shartnomaning 3.1 va 3.2-bandlariga muvofiq ko'rsatilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun to'lovlarni amalga oshirish.

Bajaruvchining huquqlari:

buyurtmachidan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va hajmda ko'rsatilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun oldindan to'lov va yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qilish;

buyurtmachidan bajarilgan ishni qabul qilishni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

Bajaruvchining majburiyatlari:

ushbu shartnomaga muvofiq yoki Buyurtmachining ushbu shartnomaning 4.8-bandida belgilangan tartibda u tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqqa binoan joriy ta'mirlash ishlarini belgilangan muddat, miqdor va sifatlar bo'yicha ko'rsatish;

agar xizmat ko'rsatish jarayonida Bajaruvchi shartnoma shartlaridan va texnik shartlardan chetga chiqsa, Buyurtmachining talabiga binoan uch kun ichida aniqlangan barcha kamchiliklarni bepul bartaraf etish.

III. SHARTNOMA BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

Ko'rsatiladigan joriy ta'mirlash ishlarining bahosi ushbu shartnomaning ilovasida ko'rsatiladi.

Buyurtmachi taqdim etiladigan xizmatning 30% foizi miqdorida oldindan to'lovni amalga oshiradi va mablag' Bajaruvchining hisobraqamiga kelib tushgan sanadan boshlab ushbu shartnomaning majburiyatlari bajarilishi boshlanadi.

Ko'rsatilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun hisob-kitobning qolgan qismi bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan keyin uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha hisob-kitoblar bank o'tkazmasi orqali Bajaruvchining hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

IV. SHARTNOMANI BAJARISH

Shartnoma shartlari ushbu shartnoma va qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan bo'lsa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

Shartnomani bajarishdan bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi sanasi hisobvara-q-faktura tuzilgan kun deb hisoblanadi.

G'aznachilik shtampida ko'rsatilgan sana Buyurtmachining joriy ta'mirlash ishlari uchun to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarini bajaradigan kun hisoblanadi.

Buyurtmachining roziligi bilan joriy ta'mirlash ishlari muddatidan oldin taqdim etilishi mumkin.

Buyurtmachi belgilangan muddatlarni buzgan holda ko'rsatilgan xizmatni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

Belgilangan miqdordan ortiq bitta nomdagi xizmatni ko'rsatish xuddi shu texnik topshiriqqa kiritilgan boshqa nomdagi xizmatning kamchiliklarini to'ldirish deb hisoblanmaydi, kamchiliklar to'ldirilishi lozim, Buyurtmachining oldindan yozma roziligi bilan amalga oshiriladigan holatlar bundan mustasno.

Ko'rsatilayotgan xizmat to'g'ridan-to'g'ri Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan taqdim etilayotgan joriy ta'mirlash ishlari hajmi, ularning sifati ko'rsatilgan hisobvara-q-faktura bo'yicha qabul qilinadi.

Shartnomada nazarda tutilgan joriy ta'mirlash ishlari ushbu shartnomaga muvofiq yoki ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda va hajmlarda amalga oshiriladi.

Buyurtmachi ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yoki joriy ta'mirlash ishlarining tegishli qismini ko'rsatish sanasini Bajaruvchini buyurtmada ko'rsatilgan sanadan kamida bir kun oldin xabar bergan holda o'zgartirishga haqli.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

Taqdim etilayotgan joriy ta'mirlash ishlarining sifati, miqdori, ularning bahosi Bajaruvchi tomonidan noto'g'ri belgilanganlik holati aniqlangan taqdirda, Bajaruvchi taqdim etilayotgan joriy ta'mirlash ishlarining sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob ishlarini amalga oshiradi va ushbu hisoblangan summaga qo'shimcha ravishda mijozga noto'g'ri hisoblangan summaning 20% miqdorida jarima to'laydi.

Agar taqdim etilayotgan joriy ta'mirlash ishlarining sifati shartnomada ko'rsatilgan texnik va boshqa shartlarning talablariga javob bermasa, aybdor tomon taqdim etilgan sifati lozim darajada bo'lmagan joriy ta'mirlash ishlari bahosining 20% miqdorida jarima to'laydi.

Jarima va penyadan tashqari, Bajaruvchi Buyurtmachiga joriy ta'mirlash ishlarini taqdim etmaslik natijasida etkazilgan zararni qoplaydi.

Joriy ta'mirlash ishlari kechiktirilgan yoki ko'rsatilmagan taqdirda, Bajaruvchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori ko'rsatilmagan joriy ta'mirlash ishlari bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani to'g'ri bajarishdan va joriy ta'mirlash ishlarini kechiktirish yoki ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

Ko'rsatilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, Buyurtmachi Bajaruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

Buyurtmachi shartnomaning tegishli shartini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortilganda, tegishli harakat (harakatsizlik) natijasida Buyurtmachi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) yuzasidan Bajaruvchining javobgarligi ham ko'rib chiqiladi.

Buyurtmachining Bajaruvchi aybi bilan shartnomani bajarmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) natijasida yetkazilgan zarar, belgilangan tartibda Bajaruvchi tomonidan qoplanadi.

Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

Tomonlar o'rtasida ushbu kelishuvdan kelib chiqadigan nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan nizolar tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

Agar ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng, ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarning biron bir tomonini to'liq yoki qisman to'g'ri bajarishiga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelsa va agar bunday holatlar, ya'ni yong'in, toshqin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, eksport yoki importga to'siqlar yoki embargolar, urush, jangovar harakatlar, terroristik harakatlar, ish tashlashlar (tomonlar ishchilarining ish tashlashlaridan tashqari), pandemiya, amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar, davlat organlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan umumiy xarakterdagi qarorlar tomonlarning shartnoma shartlarini

bajarishiga bevosita ta'sir qilsa, tegishli majburiyatlarning bajarilishi vaqti bunday holatlar bartaraf etilgan vaqtga yoki ularning oqibatlari tugashi vaqtiga ko'chiriladi.

Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, ushbu holat haqida shuningdek, holatning taxminiy davomiyligi to'g'risida boshqa Tomonni yozma ravishda 7 (yetti) kun ichida xabardor qilishi shart.

Agar yuqorida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, yengib bo'lmas kuch ta'sirida zarar yetkazilgan Tomon ushbu holatlarni asos qilib ololmaydi.

Xabarnomada ko'rsatilgan faktlar rasmiy manbalar tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, shu jumladan, press-revizlar, biroq ular bilan cheklanmaslik lozim.

Bunday xabarnomaning yo'qligi, shuningdek tegishli dalillarning yo'qligi ushbu tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishiga asos sifatida yuqoridagi holatlarni keltirish huquqidan mahrum qiladi.

Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar zudlik bilan o'zaro muzokaralar olib boradilar va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish yoki bartaraf etish maqsadida ko'riladigan choralar to'g'risida kelishib oladilar.

Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari tomonlarning o'z majburiyatlarini

bajarishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, tomonlarning har biri boshqa tomonga ushbu shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan 10 (o'n) ish kuni oldin yozma ravishda xabar yuborganidan keyin ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda tomonlarning hech biri boshqa tomondan fors-major holatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas. Shuningdek, Bajaruvchi bajarilmagan majburiyatlari uchun Buyurtmachidan olingan barcha to'lovlarni Buyurtmachiga qaytaradi va Buyurtmachi Bajaruvchining bajarilgan barcha majburiyatlarini to'liq to'laydi.

VIII. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH

Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

Ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar talablarini buzilishi kabi harakatlarni amalga oshirmaydi.

Ushbu Shartnoma Tomonlarining har biri boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ularga ish (joriy ta'mirlash ishlari)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

Xodimning uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga amalga oshirgan harakatlari deganda

quyidagilar tushuniladi: boshqa kontragentlar bilan taqqoslaganda asossiz ustunliklarni taqdim etish; har qanday kafolatlar bilan ta'minlash; amaldagi tartib-taomillarni tezlashtirish; xodim tomonidan o'z vazifalari doirasida amalga oshiriladigan, ammo Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo'lgan boshqa harakatlar.

Agar Tomonlardan biri mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarini buzgan yoki buzishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomadan so'ng, tegishli Tomon ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini buzilish sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmashligi tasdiqlangunga qadar to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

Yozma xabarnomada Tomon kontragent, uning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari tomonidan ushbu shartlar va qoidalarining buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo'lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya'ni pora olish/berish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

Shartnomaning taraflari korruptsiyaning oldini olish choralari ko'rish tartib-taomillarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda Tomonlar korruptsiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish, shuningdek, korruptsiyaning oldini olish maqsadida bir-biriga o'zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar. Shuningdek, Tomonlar korruptsiyaviy faoliyatga Tomonlarning ishtiroki xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish tartib-taomillarini amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

Tomonlar o'zlarining sodir etilishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu

Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi kontragentning ishonchliligi reytingini pasaytirishidan tortib ushbu shartnomaning bekor qilinishigacha bo'lgan noxush oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tan oladi.

Tomonlar maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda ushbu Shartnomani bajarish doirasida keltirilgan faktlar bo'yicha tegishli tartib-taomillar amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarni qo'llashni kafolatlaydilar.

Tomonlar ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to'g'risida xabar bergan Tomon uchun ham, shuningdek, xabar bergan Tomonning xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar.

IX. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

Ushbu shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ushbu shartnomaning barcha shartlari bajarilganda va hisob-kitoblar to'liq amalga oshirilganda tugaydi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

Ushbu Shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan yoki Tomonlardan birining talabiga binoan, boshqa tomon tomonidan shartnoma shartlari sezilarli darajada buzilgan taqdirda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va taraflarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.

Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

Ushbu shartnoma, unga kiritilgan o'zgartirishlar (qo'shimchalar) tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab oshiriladi.

XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

BAJARUVCHI:

"YAKKABOG' FAYYOD" MCHJ

Manzil: Yakkabog' tuman Sherozi qishlog'i

Tel.: +998995907377

R/s: 20208000904763151001

Bank: Qishloq qurilish bank

MFO: 01037

INN: 300738931

OKED:

Raxbar:

M.Ŷ

B. Abdimajidov



BUYURTMACHI:

Yakkabog' tuman obodonlashtirish boshqarmasi

Manzil: Yakkabog' tuman A. Temur 47 uy

Tel: 75 58 24 582

Sh.x/r: 301821860102507065200110001

Bank: Toshkent shahar Markaziy bank XKKM

MFO: 00014


INN: 200711074

OKED: 90211

Raxbar:

M.Ŷ

S. Suyunov



2022 yil "26"
avgust
815-4-68-OB/2022 -son
shartnomaga 1 -ilova

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ASOSIY SHARTLAR

1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.


2. Agar shartnoma bo'yicha bir Taraf ikkinchi taraf xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

“1008” ishonch telefoni;


Telegram-kanali («@anticorbot»);

Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

BAJARUVCHI:
"YAKKABOG' FAYYOD" MCHJ
B.Abdimajidov



BUYURTMACHI:
Yakkabog' tuman Obodonlashtirish
boshqarmasi
S.Suyunov



Юридик шахсни давлат руйхатидан утказиш тугрисида

Г У В О Х Н О М А

Регистрдаги тартиб раками

108

108

2008 йил «27» феврал

Маъқур гувоҳнома юридик шахс

« Яккабоғ файёд »

Фисъулняти чекланган жамияти

га

(Ўзбек тилида тулик номи)

Яккабоғ туман тадбиркорлик субъектларини давлат руйхатидан утказиш инспекцияси томонидан берилган.

(Юридик шахс булган деҳқон хужаликлари, фермер хужаликлари учун ажратилган ер участкаси ва унинг майда қисмлари).

Тендерний — ҳукукий шакли:

ТХШ

1152

Мулкиятлик шакли:

МШ

142

Почта манзили:

МХОБТ

1710250

Юридик шахс коди:

КТУТ

22298224

Тармок коди:

ХХТУТ

61110

Солиқ туловчининг идентификация раками:


СТИР

300738931

Қўшимча маълумот



Маъмуратли орган рахбари


(ИМЗО)

С.Мирзаев